

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BERILADIGAN GEOMETRIYA MATERIALLARINI O‘RGATISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

*Samarqand davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

ABRAYEVA MEHRANGIZ

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda beriladigan geometriya materiallarini o‘rganishda zamonaviy metodlardan foydalanish haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: O‘quvchi, geometriya, metodlar, obyekt, tassavvur.

Geometriya eng qadimiy matematik fandır. Geometriya yunoncha “yer o‘lchayman” degan ma‘noni aglatadi. Geo-yer, metrio-o‘lchash. Geometriyaning fan sifatida shakllanishiga qadimgi Misr, Qobul ayniqsa, Yunonistan olimlari katta hissa qo‘shgan. Yer maydonlari shaklini o‘lchash, ariqlar o‘tkazish, turli ko‘rinishdagi idishlar, savatlar, omborlarga qancha suyuqlik, meva va boshqa mahsulotlar sig‘ishini bilish zaruriyati geometriyaga oid dastlabki ma‘lumotlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

O‘quvchilar turli kattalikdagi koptoklar, futbol to‘pi, shar, to‘rtburchak, kvadrat, uchburchak, aylana, doira kabi geometrik shakllar bilan o‘zlarining kundalik hayotlarida tanishadi.

Obyekt shaklini to‘g‘ri idrok qilish, predmet shaklini abstraktlashtirish qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘quvchilar shakllarning modellarini kuzatish bilan birga o‘zlari ham shunday modellarni mustaqil yasashlari juda muhimdir. Burchak modelini tayyorlashi, doira, ko‘pburchaklar detsimetr, metr modellarini yasashlari natijasida ularning bu tushunchalar haqidagi tassavvurlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Nuqta, kesma, sinq chiziq, to‘g‘ri chiziq, ko‘pburchak, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, aylana, doira, shar, kub bularning hammasi geometrik shakllarining xossalarini aniqlash, tekshirish ularning uzunliklari, yuzi va hajmlarini hisoblash bilan shug‘ullanadi.

Boshlang‘ich sinflarda beriladigan geometriya materiallarini o‘rgatishda bir nechta zamonaviy metodlarni tavsifa etamiz.

“Venn diagrammasi” metodi.


Bu metod taqqoslashda foydalaniladi. Biz matematika darslarida quyidagicha qo‘llashimiz mumkin. Masalan, uchburchak va kvadratni taqqoslashimiz mumkin. Bunda o‘quvchilar kuzatishlari va o‘rganganlari asosida uchburchakka xos xususiyatlarni doira ichiga yozadilar, ikkinchi doiraga kvadratga xos xususiyatlarni

yozadilar. Ikkala doiraning kesishgan joyiga esa ikkala geometrik shaklning umumiyligi, o‘xshash tomonlarini yozadilar.


“Venn diagrammasi” metodini kichik guruhlarda bajarish ham mumkin, individual shaklda ham bajarish mumkin.

O‘quvchilar berilgan topshiriqni bajargach, taqdimot o‘tkazadilar. Fikrlar umumlashtiriladi. Kengaytiriladi, o‘zgartiriladi, xulosalanadi.








Bu metod o‘quvchilarni mantiqan fikrlashga, taqqoslashga o‘rgatadi.



Zinama-zina metodi






“Aql charxi” metodi
Nechta uchburchak bor?

	$\times 5$		$\times 5$
	$\times 5$		$\times 5$
	$\times 5$		$\times 5$
	$\times 5$		

$7 \times 5 = 35$

Tangram o`yini





“Aqliy hujum” metodi

1. Siz kattami akangiz kattami?
2. Mushuk kattami, sichqon kattami?
3. Choynak kichikmi, piyola kichikmi?
4. Kitob kattami, qalam kattami?
5. Mashina kattami, uy kattami?
6. Tarvuz kichikmi, qovun kichikmi?
7. O‘qituvchi kattami, o‘quvchi kattami?

Geometrik shakllar ustida ishlash bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rejalashtirishning foydali vositasi bo‘lib, odatda, o‘z ichiga “yashirin informatsiyani” oladi. Bu informatsiyani qidirish, o‘qituvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o‘rgatish matematika o‘qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. Matematika. O‘qituvchi kitobi. 2003 yil
2. Jumayev M. va boshqalar. 1-sinf matematika daftari. 2013 yil.
3. Habibullayev R.A. O‘quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish.- Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Boshlang‘ich ta‘lim. 2020 yil 5-son